
VOYAGA YETMAGAN YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATI VA SAVODXONLIGINI OSHIRISH – ASOSIY MAQSAD!



Voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish - asosiy maqsad!

Qonun ustuvorligi ta'minlangan yurtimizda aholi o'z haq-huqulari, vazifa va majburiyatlarini mukammal bilishi va mazkur bilimlarga ega bo'lishi uchun muntazam o'qib, o'rganishi lozim. Talaba yoshlarni huquqiy madaniyatini oshirishda yuridik ta'limni tarbiya jarayonida amalga oshirilishi katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamaning 2024 yil 27 avgustdagi 532-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturning 12-bandiga asosan sudyalarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars o'tishi belgilangan. Qarorning asl maqsadi ham davlat ta'lim muassasalarida yuridik ta'limning uzluksiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirishga qaratilgan.

Tumanimizdagi Demursad mahallasida joylashgan 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida mazkur qaror ijrosi yuzasidan So'x tumani fuqarolik ishlari bo'yicha sudi raisi Shermuhammad Abdullayev ishtirokida bir soatlik ochiq dars tashkil etildi. Dars jarayonida o'quvchilarni huquqiy savodxonlik malakasini oshirishga doir kerakli ma'lumot va tushuntirishlar berildi.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-29 15:50:41